

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

Son 11 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Lutfillova Xamida</i>	<i>Murodillova</i>	Лутфиллаев Ҳамидаилло Муродиллаевич
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА		12-17
<i>Ezhambergenov Xaitboy</i>	<i>Xamidulla</i>	Эзгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)		18-25
<i>Esonov Ziyodbek</i>	<i>Yuldashevich</i>	<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i>
QO'QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI		26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i>		<i>Mamatqulov Bekzod</i>
O'ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI		32-38
<i>Asadova Ra'no</i>	<i>Baymanovna</i>	<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i>
O'ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI		39-42
<i>Saidova Raxima</i>		<i>Saidova Raxima</i>
O'ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI		43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich</i>	<i>Ergasheva Ra'no</i>	<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi</i>
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI		49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i>		<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i>
TURKİSTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOİR AYRIM MULOHAZALAR		56-60
<i>Mirsoatova Sayyora</i>	<i>Turg'unovna</i>	<i>Mirsoatova Sayyora Turg'unovna</i>
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI		61-66
<i>Luxmonov Shaxzod</i>	<i>Sayfiiddin</i>	<i>Luxmonov Шаҳзод Сайфиддин ўғли</i>
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР		67-71
<i>Axmedov Bekzod</i>		<i>Axmedov Bekzod</i>
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI		72-75
<i>Mamatov Jasurbek</i>	<i>Qodirqul o'g'li</i>	<i>Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li</i>
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)		76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek</i>	<i>Toshpo'latovich</i>	<i>Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich</i>
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI		81-88

Ибрагимов Раҳмон Зиёдуллаевич
 ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ
 РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ 89-93

Akrorov Botir Bakhodirovich
 ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА
 В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ 94-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich
 IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI
 RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH 100-108

Muxitdinova Kamola Alisherovna
 «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN
 MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI 109-115

Madraximov Qaxramon Egamberganovich
 INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA
 ERISSHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA 116-125

Кетманов Авазбек Маликович
 КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ
 ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 126-134

Xolmirzayev Abdulkamid Xapizovich
 KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI 135-142

Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon oglisi
 MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING
 OF GOODS AND SERVICES 143-152

Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi
 MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI
 TASNIFI 153-160

Sharipov Komil
 MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI 161-170

Rajabov Navruzbek Azimjonovich
 MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI
 QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 171-179

Mirzaeva Shirin Nodirovna
 SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN
 UZBEKISTAN 180-187

Pardayev Rasulbek Islomovich
 TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING
 TAHLILI 188-196

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li
 SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH
 XUSUSIYATLARI 197-202

<i>Rahimov Bahromjon Ibrahimovich</i>	
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i>	
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i>	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI	234-243
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i>	
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i>	
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i>	
NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i>	
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i>	
MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i>	
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i>	
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI	283-287

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ 288-295

Daliyeva Madina

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES 296-300

Paluanova Khalifa

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES 301-306

Равшанов Махмуд

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО 307-311

Bekbergenova Gulaim Aijarikovna

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS 312-318

Normamatov Farrux Komiljon o'g'li

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI 319-322

Gulamova Dilobar Imamkulovna

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI 323-326

Xolmuxamedov Baxtiyor

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI 327-334

Chorieva Iroda Kurbonboevna

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 335-339

Ganiyeva Orzigel Xayriddinovna

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUksiya: SHAKL VA MAZMUN MASALASI 340-345

Расулова Камола

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ 346-353

Омонов Турғунбой

“СУФУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ 354-358

Хакбердиева Сайёра Фармоновна

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ 359-364

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 365-370

Gubaydullin Artur Faridovich

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S “GOOD OMENS” 371-376

Abdullaeva Sevara Makhsudalievna

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES 377-381

<i>Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi</i>	
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI	382-385

<i>Yuldasheva Nigora Baxodirovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI	386-390

<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i>	
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHЛИLI	391-396

12.00.00 – YURIDIК FANLAR

<i>Рузметов Хайрулла</i>	
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ	397-402

<i>Ачилова Лилия Илхомовна</i>	
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА	403-410

<i>Abdubannayev Umidjon</i>	
AXBOROTGA BO'LGАН INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	411-421

<i>Халиқулов Комолиддин Носирович</i>	
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕRENИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ	422-427

<i>Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли</i>	
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР	428-433

<i>Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли</i>	
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИННИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ	434-439

<i>Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich</i>	
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJY TAJRIBA	440-446

<i>Алиев Асилбек Кадирович</i>	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ	447-451

<i>Нодирахон Абдурахманова</i>	
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	452-462

<i>Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич</i>	
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ	463-469

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Xusanova Mohira</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH	470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i>	
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TALABALARING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYASI	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGGATISH	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i>	
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i>	
TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i>	
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKİSTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i>	
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i>	
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i>	
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i>	
TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i>	
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI	565-568

Received: 31 October 2024

Accepted: 5 November 2024

Published: 15 November 2024

Article / Original Paper

CLASSIFICATION OF DIGITAL MARKETING SYSTEMS IN THE DEVELOPMENT OF REGIONAL TOURISM

Ilkhamova Zarnigor Po'latjon qizi

Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, UrSU, Department of Business and Management, etc. associate professor

Abstract. The article examines the level of knowledge about the classification of the digital marketing system in tourism development, as well as identifies opportunities for development based on the analysis of existing research.

Key words: traditional marketing, digital marketing, tourism marketing, digital technologies, content marketing.

MINTAQAs TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI TASNIFI

Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), UrDU, Biznes va boshqaruv kafedrasи v.b. dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizmni rivojlantirishda raqamli marketing tizimi tasnifi bo'yicha bilimlar darajasi o'rganilgan, shuningdek, mavjud tadqiqotlar tahlili asosida rivojlantirish imkoniyatlari aniqlangan

Kalit so'zlar: an'anaviy marketing, raqamli marketing, turizmda raqamli marketing, raqamli marketing, kontent marketing.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N20>

Jahon iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlari sifatida har bir mintaqqa o'zining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turizm sohasining rivojlanishi uchun turlicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqmoqda. Natijada hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi imkoniyatlari paydo bo'lib, aholi daromadlarining oshishi va yangi ish o'rinalining yaratilishiga bevosita xizmat qilmoqda. Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra, "2033-yilga kelib bu soha o'zining yalpi ichki mahsulotini 15,5 trillion dollargacha oshirishini prognoz qilmoqda, bu esa jahon iqtisodiyotining 11,6 foizini tashkil qiladi va butun dunyo bo'ylab 430 million kishini ish bilan ta'minlanadi, bu sohada mehnatga layoqatli aholining deyarli 12 foizi band bo'ladi" [1]. Shuningdek, Digital Market Outlook hisobiga ko'ra, turistik mobil ilovalarining global daromadi 2023-yilda o'tgan yilga nisbatan 17 foizga oshib, qariyb 400 million AQSH dollarini tashkil etgan [2].

Jahon miqyosida mintaqalar turizmining rivojlanishida marketingning zamонавиу таомияларини qo'llash, innovatsion usul va vositalaridan foydalanish, hududiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish, turistik majmualar

va marshrutlarga mijozlarni jalb qilishda raqamli vositalardan foydalanish, turizmni mintaqaviy rivojlanish asosida hududlarning turistik imijini oshirish, raqamli turizm, ekoturizm kabi yo'nalishlarda ko'pgina tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizning barcha mintaqalarida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Jumladan, Xorazm viloyatida turizm yangi ish o'rinalarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish[3] muhim vazifalar sifatida ilgari surilgan. Shuningdek, "2019-2025-yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Konsepsiya" siga muvofiq, mamlakat mintaqalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ekologik, qishloq, agro, etno va MICE – turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Shu sababli, O'zbekiston mintaqalarini rivojlantirishda turizm imkoniyatlaridan foydalanish, turistik bozorda raqamli marketing strategiyalaridan foydalanishning tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish, hududiy raqamli marketing texnologiyalar imkoniyatlarini baholash asosida innovatsion rivojlanish, mintqa turizmini rivojlantirishda raqamli marketingdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ko'pgina ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar sharhi. So'nggi yillarda yangi texnologiyalar va xususan, Internetning rivojlanishi turizm sohasida ham biznes modellarini XXI asrga va marketingning yangi shakllariga moslashtirishga undadi[4]. Ushbu yangi texnologiyalarning rivojlanishi bilan marketing butun dunyo bo'ylab kuniga 24 soat, haftada 7 kun mahsulot va xizmatlarni olish mumkin bo'lgan raqamli ekotizimga aylandi[5].

Turizm biznesi uchun marketing tizimi sotishni rag'batlantirish, narxlar va ularning o'zgarishini tahlil qilish, jalb qilish uchun reklamadan foydalanish, mijozlar daromadlarining o'sishini prognozlash, mijozlar ehtiyojlarini o'rganish, xizmatlar va tovarlar assortimentini rejalashtirish kabi elementlarni o'z ichiga oladi. O'z maqsadlariga erishish uchun turistik kompaniyalar turizm sektorining turli elementlarini ko'rib chiqish va turizmni boshqarishda[6] raqamli vositalar va turli kommunikatsiya kanallaridan foydalangan holda o'zining marketing taktikasini tanlaydi, chunki ularning har biri har xil funksiyaga ega va turli maqsadlarga erishadi. Raqamli marketing ijtimoiy media, video, mobil qurilmalar, qidiruv tizimlari, elektron pochta, filiallar tarmog'i, onlayn reklama, og'zaki so'z, SEO, veb-sayt, Google Analytics, matn va multimedia kontentini yaratish orqali marketingni o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonning aksariyat mintaqalarida 2018-yildan boshlab, sayyoohlolar kelishi keskin o'sdi. Ushbu o'sish ichki turizmni rag'batlantirish va talabni shakllantirish tufayli yuzaga keldi. Shuningdek, hududlarda sayyoqlik turlarini ko'payishi va turizm marshrutlarini harakatini osonlashtiradigan yangi texnologiyalarni joriy qilinishi turistlar oqimini oshishiga yuqori ta'sir ko'rsatdi.

Dunyo bo'ylab turizm kuchayib borayotgan bir sharoitda har bir hududda mobil texnologiyalar va internetdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish barcha mintaqalar uchun asosiy strategik yo'nalishlar sifatida qaralmoqda. Turizm sohasiga AKTning bevosita integratsiyalashuvi ijtimoiy raqamli turizm konsepsiyasini yangi bosqichga olib chiqish va rivojlanishi uchun asos yaratmoqda.

Raqamli turizm konsepsiysi xususan, raqamli turizmga asoslangan biznes modellarini ishlab chiqishda sayyoohlarning sayohat paytida kundalik harakatlarini oshirish uchun foydalilaniladigan innovatsion texnologiyalarni qo'llashni anglatadi. Shuningdek, zamonaviy

yondashuvlardan yana biri shaxsiy lashtirish hisoblanib, bu sayyohlarga taqdim etilgan ma'lumotlarni uning xulq atvoriga moslashtirish va ular joylashgan joyda eng mos keladigan obyektlarga kirish imkonini beradi.

Hududlarda muvaffaqiyatli sayyohlik yo'nalishini yaratish murakkab jarayon hisoblanadi. Buning uchun turizmda kamida uchta asosiy faoliyat sohasining mukammal kombinatsiyasini talab qiladi, ular: turistik obyektlar, mehmonxona va restoranlar, transport infratuzilmasi hisoblanadi. Ushbu uchta xizmatni rejalashtirish va marketingini muvofiqlashtirishga o'ta muhim vazifalardandir. Bunday hollarda turizm yo'nalishlarini birgalikda rivojlantirishga ko'maklashuvchi mintaqaviy turizm majmualarini yaratish muvaffaqiyatli vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli marketing, xususan, sayyohlik firmalari va umuman turistik marshrutlar muvaffaqiyatida muhim ahamiyatga ega. Turizmda ushbu ikki element, turistik majmualar va raqamli marketingning samarali amalga oshirish sinergiya ta'sirini yuzaga chiqaradida, turistik hududni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli marketing vositalari iste'molchini marketingning barcha jarayoni rejalashtirish va rivojlantirishni o'z ichiga oladi va an'anaviy vositalarga qaraganda ko'proq samaradorlikni namoyish etadi. Raqamli marketing vositalaridan to'g'ri foydalanish tufayli savdo samaradorligi oshadi.

Raqamli marketingning turizmdagi ahamiyatiga qaramay, turizm kam rivojlangan hududlarda uni samarali amalga oshirish uchun imkoniyatlar, nou-xauga ega bo'lgan kichik hajmdagi sayyohlik kompaniyalar faoliyatini rivojlantirish yuqori ahamiyat kasb etadi.


Shunga ko'ra, Xorazm viloyatida turistik majmualar va kompaniyalar faoliyatiga va umuman viloyatning turizm sektoriga tegishli kompaniyalarga qanday ta'sir qilishini tahlil qilish orqali strategik imkoniyatlarni belgilash eng muhim yo'nalishdir. Shu maqsadda raqamli marketing vositalarini o'rganish va tasniflash, ulardan foydalanish va turizm sektoriga ta'sirini ko'rib chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiq. Xuddi shunday turistik hududda, sayyohlik bozorida raqamli vositalardan foydalanish va foyda bilan bog'liq qo'shimcha qiymatga ega yoki yo'qligini ko'rib chiqish talab etiladi.

Turizm sanoati dinamik va raqobatbardosh sanoat bo'lib, jahon bozorlaridagi o'zgarishlar hamda COVID-19 pandemiyasi tufayli marketing tobora muhim rol o'ynamoqda. Turizm marketingi — bu turistik bo'linma tomonidan iste'molchilarning qoniqishini va turizm biznesining rentabelligini maksimal darajada oshirish maqsadida amalga oshiriladigan tizimli va kelishilgan harakatlar majmuidir.[7] Ma'lumki, eng muhim marketing vositasi 4P marketing aralashmasi bo'lib, u to'rtta o'zgaruvchidan iborat: mahsulot, narx, joy va reklama.[8] Marketing rivojlanishi bilan yana uchta P qo'shildi: odamlar, jarayon va jismoniy dalillar.[9] 1990-yillardan boshlab marketing raqamli asrga moslashdi, shuningdek, mijozlar bilan bog'liq bo'lgan to'rtta C ni ko'rib chiqdi va mijozlar qiymati, mijoz uchun xarajat, qulaylik va qulay aloqa.[10]

Turizm sektorining o'ziga xos xususiyatlarini va zamonaviy marketing tendensiylarini hisobga olgan holda, turizm korxonalari uchun 4 P marketing aralashmasining klassik modeli 4P + E modeliga o'zgartirildi.[11] Ushbu model to'rtta asosiy o'zgaruvchi bilan birga yana bir o'zgaruvchini, his-tuyg'ularni (emotions - E) ham o'z ichiga oladi. O'zgaruvchi hisoblangan element (hissiyotlar - "E") turistik mahsulotni taqdim etish va amalga oshirish jarayonida iste'molchining ijobiy his-tuyg'ularini va yoqimli kayfiyatini oshiradigan vositalar to'plamini o'z

ichiga oladi.[12] Turistlardagi ijobiy taassurotlari va hissiyotlari turistik mahsulotga, turistik hududga yuqori baho berish[13]ga va bu hudud brendini targ'ib qilish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, sayyoohda o'zining ijobiy tajribasini takrorlash, o'z tassurotlarini do'stlari va tanishlari bilan bo'lishish istagiga olib kelishi mumkin, ular ham turistik mahsulotni sotib olishga qaror qilishlari mumkin. Shu sababli, turizm va hududiy marketingi va menejmenti turistni hamkor, turistik mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish jarayonining "birga yaratuvchisi" deb hisoblaydi.[14]

Turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlarini va marketingning hozirgi tendensiyalarini hisobga olgan holda, turizm korxonalari uchun "4P" marketing majmuasining klassik modelini takomillashtirilgan "4P+E" modeli 1-rasmida tavsiya etiladi.



1-rasm. "4P+E" turistik korxonasi uchun marketing kompleksi modeli.

Taklif etilgan model turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi va marketing kompleksining klassik elementlari (mahsulot, narx, sotish, kommunikatsiya siyosati) bilan birga o'ziga xos komponentni "hissiyot"ni birlashtiradi. "Hissiyot" elementining kiritilishi turistlarda o'ziga xos ijobiy taassurotlar va hissiyotlarni shakllantirish zarurati bilan bog'liq bo'lib, bu turistik mahsulot, turistik hududga yuqori baho berishga yordam beradi. Mazkur tajriba turistik brendni ilgari surishning asosiy yo'naliшhlarini qamrab oladi. "Hissiyot" elementi turistning ijobiy tajribasini takrorlash istagini keltirib chiqarishi, shuningdek, turistik mahsulotni sotib olishga qaror qilishi mumkin bo'lgan yaqinlariga va do'stlariga o'z taassurotlari bo'lishishi istagini shakllantiradi. Marketingning asosiy tamoyili — iste'molchilarga e'tibor qaratish va ularga ta'sir qilishning samarali usullarini tanlash, birinchi navbatda ularning qoniqishini oshirishga qaratilgan samarali marketing vositalarini izlashni taqozo etadi. Turistlar har qanday turistik xizmatlar va mahsulotlarni yaxshi kayfiyatda qabul

qilishi, zavq olishi, ongida ijobiy taassurot qolishi va sevimli mashg'ulotlariga yordam berishi kerak. Sayyoqlik firmalarning marketing rejasini ishlab chiqishda biz "4P+E" marketing majmuasi modeliga amal qilishni tavsiya etiladi. Model elementlari tizimi va ularning asosiy xususiyatlari 1-jadvalda keltirilgan.


Turistik korxonaning marketing siyosatini shakllantirishning asosi iste'molchiga ta'sir qilish uchun noyob, raqobatchilardan farq qiladigan marketing vositalari to'plami bo'lib, ularning maqsadi ijobiy taassurotlar va iste'molchilarining qoniqish darajasini oshirishga yordam beradigan yangi vositalardan foydalanishdir. Agar turistik marketing faoliyati taassurotlarni shakllantirishga qaratilsagina turizm marketingi boshqa marketing vositalardan farq qiladi. Shunga ko'ra, turizimning o'ziga xos jihatni uning marketing kompleksida taassurotlar bo'yicha ma'lum elementlar bo'lishidir.

1-jadval

Turizm sohasidagi marketing kompleksining xususiyatlari

Marketing MIKS kompleksi elementlari	Xususiyati	Turizm sohasi uchun o'ziga xos jihatlari
Mahsulot (Product)	Mahsulotning iste'molchi xususiyatlariga xos bo'lgan elementlarini, maqbul assortiment va sifat kafolatini ta'minlash	Turistik mahsulotni yaratish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar majmui: brending, funksionallik (o'ziga xoslik), sifat, assortiment, xizmat ko'rsatish.
Narx (Price)	Iste'molchi tomonidan qabul qilingan mahsulot qiymati, mahsulot tannarxi, raqobatchilarning narxlari va istalgan daromad darajasi asosida mahsulot narxlarini belgilash.	Narxlar darajasi turistik mahsulot turi va sinfiga qarab, xarajatlar va iste'mol qiymatini hisobga olgan holda belgilanadi; mahsulot turlari bo'yicha farqlangan narxlar; xizmatlar uchun tariflarni belgilash
Joy (Place)	Savdo nuqtasi mahsulotning maqsadli bozor uchun mavjudligini ta'minlaydi va kompaniyaning mahsuloti bozorda to'g'ri joyda (maqsadli iste'molchi uni ko'rishi va sotib olishi mumkin bo'lgan joyda) kerakli vaqtida (maqsadli iste'molchi bo'lganda) bo'lishi va sotib olish kerakligini anglatadi)	Marketing strategiyasida "savdo nuqtasi" darajasida aks ettirilishi mumkin bo'lgan qarorlar: mahsulotni sotishni rejallashtirgan bozorlar; tarqatish kanallari, shartlari va turi; logistika (xizmatlar to'plami)
Siljitchish (Promotion)	Iste'molchining e'tiborini turistik mahsulotga qaratishga, bilimlarni, oldingi tajribani shakllantirishga imkon beradigan barcha marketing kommunikatsiyalari va bu asosiy xususiyatlar, tovarlarni sotib olish va takroriy xaridlar zarurligini shakllantirish.	Turistik mahsulotni ilgari surish shunday marketing kommunikatsiyalarini o'z ichiga oladi: reklama, Internetda reklama, qidiruv tizimini optimallashtirish, PR, to'g'ridan-to'g'ri marketing, raqamli marketing.
Xissiyot (Emotions)	Turistik mahsulotni taqdim etish va amalga oshirish jarayonida foydalanish iste'molchining ijobiy his-tuyg'ularini kuchaytirishi kerak bo'lgan vositalar to'plami.	Turistik sayohat paytida iste'molchi ijobiy bo'shashgan holatga, yoqimli kayfiyatga ega bo'lishi kerak. Bu atmosfera (assotsiatsiya, afsona, hamrohlik, taqdimot va boshqalar) tufayli mumkin.

Turistik mahsulotlar va xizmatlarga mijozlarning ishonchini, qoniqishini va sodiqligini ta'minlash barcha turistik korxonalar uchun muhim yo'nalish hisoblanadi. Emotsional xususiyatlarni turistlar ongida shakllantirishga qaratilgan asosiy prinsiplar 2-rasmida tavsija etiladi. Emotsional hissiyotlar taqdim etuvchi vositlardan foydalanishning asosiy prinsiplari quyidagilar: o'ziga xoslik, eksklyuzivlik, ijodkorlik, mijozlarga yo'naltirilganlik. Taklif etilayotgan marketing kompleksi modeliga ko'ra turizm sohasida bozorda tovarlarni samarali ilgari surish uchun marketolog tomonidan boshqarilishi va ishlab chiqilishi mumkin bo'lган barcha zarur raqamli marketing vositalarini o'z ichiga olgan marketing aralashmasi (MIKS) taklif etiladi.



2-rasm. Turizm sohasidagi raqamli marketing kompleksining asosiy vositalari¹

Marketing kompleksining maqsadi turistik mahsulotning maqbul qiymatini oshiradigan, shuningdek, turistik korxonaning bozordagi uzoq muddatli foydasini maksimal darajada oshirishga yordam beradigan strategiyani ishlab chiqishdir. Bunda turistik korxonalar quyidagilarni bilishi zarur:

- talab va taklifni tahlil qilish orqali bozorni tushunishi, analitik marketing usullarini;

¹Muallif ishlanmasi

- mahsulot (xizmat) yaratish, uning narxini aniqlash, sotish kanallarini yaratish, iste'molchini mahsulot haqida xabardor qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqishi;
- bozorga kirishi (bozor ulushini egallah, uni kengaytirish, saqlash, mijozlar tajribalarini oshirishi);
- bozor bilan o'zaro munosabatlarning tanlangan falsafasiga amal qilishi.

Xulosa va takliflar. Dunyo bo'ylab turizm kuchayib borayotgan bir sharoitda har bir hududda mobil texnologiyalar va internetdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish barcha mintaqalar uchun asosiy strategik yo'nalişlar sifatida qarash lozim.

Turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlarini va marketingning hozirgi tendensiylarini hisobga olgan holda, turizm korxonalari uchun "4P" marketing majmuasining klassik modeli takomillashtirilgan "4P+E" modelidan foydalanish orqali hududiy turizmni mijozlarga yo'naltirilgan marketing asosida shakllantirish imkoniyatini beradi. Bunda turistlar uchun emotsiyonal hissiyotlar taqdim etuvchi vositlardan foydalanishning asosiy yo'nalişdir.

Turizm sohada raqamli marketing vositalarini turli darajadagi guruhlash asoslarini (atributlarini) aniqlash orqali tasniflash lozim. Mazkur tasniflash turizmda raqamli marketing strategiyalaridan foydalanish uchun asos yaratib, turoperatorlar va turistik korxonalardagi bo'shliqlarni to'ldirish imkonini beradi. Internet xizmatlarini tasniflash tizimini yaratilishi turizm raqamli marketing tizimida qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalarni ommalashuviga, turizm industriyasini raqamlashtirishni rivojlantirishda katalizatori vazifasini o'taydi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. (WTTC) Butunjahon turizm tashkiloti rasmiy veb sahifasi. <https://www.unwto.org/taxonomy/term/347>
2. <https://www.statista.com/topics/7589/digitalization-of-the-travel-industry/#editors> Picks
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni
4. Bennett, D., Yábar, D. P.-B., & Saura, J. R. (2017). University Incubators May Be Socially Valuable, but How Effective Are They? A Case Study on BusinessIncubators at Universities. In M. Peris-Ortiz, J. Gómez, J. Merigó-Lindahl, & C.Rueda-Armengot (Eds.), Entrepreneurial Universities. Innovation, Technology, and Knowledge Management (pp. 165–177). Cham, Switzerland: Springer. doi:10.1007/978-3-319-47949-1_11
5. Sutherland, W., & Jarrahi, M. H. (2018). The sharing economy and digital platforms: A review and research agenda. International Journal of Information Management, 43, 328–341. doi:10.1016/j.ijinfomgt.2018.07.004
6. Les Lomsdon, Stephen J. Page, 'Tourism and Transport: Issues and Agenda for the new Millennium', (London:Elsevier, 2004), ISBN 0080441726
7. Kotler, P.; Bowen, J.; Makens, J.C.; Baloglu, S. Marketing for Hospitality and Tourism, 7th ed.; Prentice Hall: Hoboken, NJ, USA; Pearson Education: London, UK, 2017
8. Kotler, A.E. Principles of Marketing; Pearson: Boston, MA, USA, 2016.
9. Booms, B.H.; Bitner, M.J. Marketing Strategies and Organization Structures for Service Firms. In Marketing of Services; Donnelly, James, H., George, W.R., Eds.; American Marketing Association: Chicago, IL, USA, 1981; pp. 47–51.
10. Lauterborn, B. New Marketing Litany: 4Ps Passe: C-Words Take Over. Advert. Age 1990, 1, 990.

11. Fedoryshyna, L.; Halachenko, O.; Ohienko, A.; Blyznyuk, A.; Znachek, R.; Tsurkan, N. Digital Marketing in Strategic Management in the Field of the Tourism. J. Inf. Technol. Manag. 2021, 13, 22–41. [Google Scholar]
12. Podgorna, I.; Babenko, V.; Honcharenko, N.; Sáez-Fernández, F.J.; Fernández, J.A.S.; Yakubovskiy, S. Modelling and Analysis of Socio-Economic Development of the European Union Countries through DP2 Method. WSEAS Trans. Bus. Econ. 2020, 17, 454–466. [GoogleScholar] [CrossRef]
13. Quinet, E. and Vickerman, R. "Principles of transport economics." Cheltenham, Edward Elgar Publishing Limited(2004)
14. Romanenko, Y.O.; Chaplay, I.V. Marketing communication system with in public administration mechanisms. ActualProbl. Econ. 2016, 178, 69–78. [Google Scholar]
15. Fedoryshyna L. et.al. Digital marketingin strategic management in the field of the tourism //Journal of Information Technology Management. – 2021. – Т. 13. – №. Special Issue: Role of ICT inAdvancing Businessand Management. – С. 22-41.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масьулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).